

## YOSHLARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-HUQUQIY AHAMIYATI

**Sulaymonova Sanobarxon Abdullajon qizi**

*Farg'ona yuridik texnikumi*

*"Yuridik xizmat" yo'nalishi*

*2-bosqich 42-24-guruh o'quvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni, huquqiy ongini va madaniyatni shakllantirishga bag'ishlangan. Shuningdek, bu borada olib borilayotgan islohotlar ko'rsatilgan.*

**Kalit so'zlar:** *yoshlar, huquqiy savodxonlik, huquqiy ong, huquqiy ma'daniyat.*

Globalashuv davrida yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish nafaqat milliy taraqqiyotning asosi, balki xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ham muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, bu masala nafaqat ta'lim tizimi, balki siyosiy, ijtimoiy va huquqiy sohalarida ham ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Maqsad – yoshlar o'z huquq va majburiyatlarini anglab yetishi, huquqiy qadriyatlarga hurmat ko'rsatishi va amaliyotda qo'llay olishidir.

Huquqiy savodxonlik – bu shaxsning huquq va majburiyatlarini bilishi, ulardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi hamda huquqiy qadriyatlarga hurmat bilan qarashi demakdir. Huquqiy bilimga ega bo'lgan fuqaro qonunlarga rioya qiladi, ularni buzmaslikka harakat qiladi va o'z huquqlarini qonuniy asosda himoya qila oladi.

Yoshlarni huquqiy savodxonligini oshirish uchun eng avvalo, hozirgi kundagi globalashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarlicha foydalanish zarur. Yoshlarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zaruriy sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni bilan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyaning "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" deb nomlangan 5-ustuvor yo'nalishida 70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida belgilangan

vazifalardan biri “Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish” bo‘lib, unga ko‘ra tegishli muassasa va tashkilotlarning joriy masala bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishlari belgilab berilgan.

Huquqiy ong deganda, ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo‘lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquqiy tartibotga va boshqa hodisalarga nisbatan bo‘lgan g‘oyalar his-tuyg‘ular, tasavvurlar yig‘indisidir. Huquqiy ongni shakllantirishda huquqiy tarbiya vositalari katta ahamiyatga ega. Z.M. Islomov “huquqiy targ‘ibot, huquqiy ta‘lim, yuridik amaliyot va o‘z-o‘zini tarbiyalashni huquqiy tarbiya vositalari” sifatida ta‘kidlab o‘tadi. Insonlarda huquqiy ong darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, huquqiy ma‘daniyat ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati - bu jamiyat yaratgan ma‘naviy qadriyatlarning tarkibiy qismidir. Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilgan ma‘naviy axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo‘ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot muhitini o‘rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi

Bu borada davlatimiz tomonidan ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2019-yil 13-dekabrda “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4551-son qarori borasidagi ko‘plab vazifalarni belgilab beradi.

Yoshlarning huquqiy bilimni oshirishda zamonaviy vositalar raqamli texnologiyalar davrida huquqiy targ‘ibot usullarini yangilash zarurati paydo bo‘lmoqda. O‘zbekistonda “Lex.Uz” qonunchilikning elektron bazasi orqali fuqarolarga qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarini qulay shaklda taqdim etish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy mavzularda maxsus loyihalar va “Huquqiy maktabi” mobil ilovasi tashkil etilib, yoshlarning huquqiy bilimlari va huquqiy savodxonligini oshirish qonuniylikni ta‘minlashda, adolatli va huquqiy jamiyat qurishda hal qiluvchi interaktiv usullarda amalga oshirilmoqda.

Huquqiy savodxonlikning ijtimoiy ahamiyati huquqiy bilimli yoshlar jamiyatdagi turli ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etadi, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz pozitsiyada bo‘ladi. Jahon Banki ma‘lumotlariga ko‘ra, huquqiy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda

qonun ustuvorligi indeksi yuqori bo'ladi va bu iqtisodiy barqarorlikka bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish nafaqat ularning shaxsiy huquq va manfaatlarini himoya qilishiga, balki davlatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Statistik ma'lumotlar ham shuni ko'rsatadiki, huquqiy bilim yetishmasligi jamiyatning ijtimoiy faoliyatini cheklaydi. Shuning uchun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro tajribani o'rganish, zamonaviy raqamli vositalardan samarali foydalanish va yoshlar o'rtasida huquqiy targ'ibotni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Huquqiy ong va madaniyatning yuksalishi esa nafaqat qonun ustuvorligini ta'minlaydi, balki demokratik qadriyatlarni mustahkamlaydi va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotiga keng yo'l ochadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.<https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Islomov.Z.M. Davlat va huquq nazariyasi.-T.: " Adolat", 2007.-B.578
3. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmoni. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.<https://lex.uz/ru/docs/-4149765>